YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 24-mart, № 11 (8029)

MARKAZ YOSHLARIMIZ ORASIDAN YANGI XORAZMIYLAR, BERUNIYLAR VA ULUG‘BEKLAR, FARG‘ONIY VA IBN SINOLAR, BUXORIY VA TERMIZIYLAR YETISHIB CHIQISHI UCHUN MUSTAHKAM MA’NAVIY MAYDON BO‘LISHI KERAK.

Shavkat MIRZIYOYEV



INSON, MILLAT VA XALQ QADRINI ULUG‘LAYDIGAN AQL-TAFAKKUR MARKAZI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilayotgani haqida to‘xtalib, muqaddas dinimiz ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga, ilm-ma’rifat yo‘liga da’vat etishini, uni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlar bilan murosa qilib bo‘lmasligini alohida ta’kidlagan edi.

Ana shu yuksak g‘oya va maqsadlar asosida bunyod etilgan mazkur markaz xalqimizning uch ming yillik tarixi, bunyodkorlik salohiyati, jahon tamadduniga qo‘shgan ulkan hissasi, buyuk ajdodlarimizning madaniy-ma’rifiy merosini chuqur o‘rganish va keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi o‘zining mahobati, maydoni va qamroviga ko‘ra, dunyoda islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o‘rganish hamda targ‘ib etishga qaratilgan yirik majmualardan biri hisoblanadi.

U Toshkentning mashhur Hazrati Imom majmuasi hududidagi 10 gektar maydonda barpo etilgan. Bino uch qavatdan iborat bo‘lib, uzunligi 161 metr, eni 118 metrni tashkil etadi. Majmua 1,8 gektar maydonda qad rostlagan, gumbazining balandligi 65 metr, umumiy foydalanish hududi esa 42 ming kvadrat metrdan ziyod. Bu kabi noyob ko‘rsatkichlar uni “Ginnessning rekordlar kitobi”ga kiritish uchun ham asos bo‘lmoqda.

Markaz binosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning me’moriy g‘oya va takliflari asosida loyihalashtirilgan. Bunyod etish jarayonida davlatimiz rahbari ushbu majmuaga bir necha bor tashrif buyurib, uning mazmunan va shaklan yanada mukammal bo‘lishi yuzasidan qimmatli tavsiya va maslahatlarini ulashdi. Xususan, 2025-yilning o‘zida Prezidentimiz markazga bir necha marta kelib, ekspozitsiyalar, infratuzilma, ma’rifiy va ilmiy yo‘nalishlarni takomillashtirish bo‘yicha muhim ko‘rsatmalar berdi.

Markaz qadimiy va milliy me’morchilik an’analari asosida qurilgan bo‘lib, unga to‘rt tomondan – to‘rt asosiy portal orqali kirish mumkin. Ushbu portallar va binoning tashqi ravoqlari ilm-ma’rifat, bag‘rikenglik, insoniylik va ota-onaga hurmat mazmunidagi Qur’on oyatlari hamda hadislar bilan bezatilgan.

Quyi qavatda bolalar uchun maxsus platforma, restavratsiya hamda elektron nusxa olish laboratoriyasi, muzey eksponatlari va nodir qo‘lyozmalarni saqlash fondlari, zamonaviy kafeteriy va muzey vestibyullari joylashgan.

Birinchi qavatdan qariyb 8 ming 350 kvadrat metrlik ko‘rgazma zaliga ega muzey va 550 o‘rinli anjumanlar zali o‘rin olgan. Ikkinchi qavatda esa qo‘lyozma va toshbosma manbalar, bosma va elektron adabiyotlar fondiga ega kutubxona, o‘quv zallari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar uchun sharoit yaratilgan.

Markazining ma’naviy qalbi hisoblanadigan Qur’oni karim zalining gumbazi ostida maxsus mepping gologrammasi yaratilgan bo‘lib, unda avval koinot tasviri namoyon bo‘ladi, osmondagi yulduzlar jilolanadi. E’tiborlisi, gumbaz ostidagi yulduzlar kompozitsiyasi Toshkent osmonida tunda ko‘rinadigan yulduzlar xaritasi asosida shakllantirilgan. Ularni ifoda etish uchun 90 dona “swarovski” toshi va 650 dan ortiq chiroqlardan foydalanilgani mazkur zalga alohida ulug‘vorlik bag‘ishlagan.

Bu yerda Usmon Mus’hafi bilan bir qatorda yurtimizga tegishli bo‘lgan, turli sulolalar davrida yaratilgan 114 ta nodir Qur’on qo‘lyozmasi jamlangan. Ular orasida somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, temuriylar, shayboniylar va boshqa davrlarga mansub noyob nusxalar bor. Bu qo‘lyozmalar Sharq kitobat san’atining yuksak namunalari sifatida nafaqat diniy, balki ulkan tarixiy, ilmiy va badiiy qimmatga ham ega. Zaldagi zamonaviy vitrinalarda xalqimiz orasida asrab-avaylab saqlanib kelingan va markaz fondiga taqdim etilgan asl qo‘lyozmalar ham munosib o‘rin olgan.

Qayd etilganidek, markaz tamal toshi qo‘yilganidan 2025-yilga qadar uning fondidagi qadimiy manbalar soni 2 mingdan oshdi, nodir Qur’on qo‘lyozmalari esa 60 tadan ziyodga yetdi. Ularning barchasi xalqimizdan jamlangan va xalqaro auksionlar orqali xarid qilingan. Bu borada amalga oshirilgan ishlar milliy va diniy merosimizni qayta tiklash, tarqoq holda saqlanayotgan bebaho manbalarni Vatanga qaytarish, ularni ilmiy muomalaga kiritish va kelajak avlod uchun asrab qolish yo‘lidagi mustahkam yondashuvni yaqqol namoyon etmoqda.

Markazda tashrif buyuruvchilarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko‘rsatish uchun tarqatma materiallar, broshyuralar va kitoblar tayyorlangan. O‘zbekiston muzey amaliyotida ilk bor xalqaro ekspertlar jalb etilgan holda zamonaviy kimyo-fizik laboratoriyada barcha muzey ashyolarining kimyoviy tarkibi va yaratilganlik vaqti aniqlanib, ularning texnologik pasportlari tayyorlangan.

Xalqaro ISO standartlari asosida eksponatlar raqamlashtirilib, yagona elektron platformaga joylashtirilgan. UNESCO va IKOM talablari, shuningdek, jahonning eng mashhur muzeylari tajribasi asosida eksponatlarning 8 yo‘nalishdagi etiketaj etalonlari va tasniflari yaratilgan. Har bir eksponatga QR-kodlar joylashtirilishi natijasida tashrif buyuruvchilar mobil telefon yoki planshet orqali ularning video va audio kontenti bilan dastlab 3 tilda, keyinchalik esa 8 tilda tanishish imkoniga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, kelgusida barcha eksponatlarga maxsus elektron chiplar o‘rnatish, ko‘zi ojiz insonlar eksponatga yaqinlashganda audio gid orqali ma’lumotni avtomatik eshitish tizimini joriy etish, Bluetooth mayoqchalari yordamida bino ichida mustaqil harakatlanish imkoniyatini yaratish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Britaniya, Luvr va Metropolitan muzeylaridagi kabi robot-gidlar, planshetlar orqali video va audio tanishuv, audiogidlar, radiogidlar va yo‘nalish ko‘rsatuvchi quloqchinlardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Markazning keyingi muhim qismi bo‘lgan kutubxonaning umumiy maydoni 3 ming 105 kvadrat metrni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda uning fondi 45 ming 150 tadan ziyod adabiyotni qamrab olgan bo‘lib, shundan 2 ming 609 tasi nodir nashrlardan iborat. Bundan tashqari, kutubxonada 350 mingta elektron adabiyot mavjud. U bir vaqtning o‘zida 310 nafar foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Olimlar va professorlar uchun alohida 4 ta xona tashkil qilinib, ularning ilmiy faoliyat olib borishi uchun barcha zamonaviy texnika va qulayliklar yaratilgan.

Kutubxona bo‘limlaridan biri 22 nafar ma’rifatparvar jadid bobomizning merosiga bag‘ishlangan. Jadidlarning fotoportretlari joylashtirilgan kitob javonlarida esa ular tomonidan yaratilgan va faoliyatiga oid nodir adabiyotlar o‘rin olgan.

Shuningdek, kutubxona fondini O‘zbekistonning ulug‘ mutafakkir olimlari hayoti va ijodi, ular tashkil etgan ilmiy maktablar to‘g‘risidagi noyob nashrlar bilan boyitish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, buyuk allomalarimizning qo‘lyozma va toshbosma asarlarining ilk nashrlari, ularning ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan noyob tadqiqotlar va sharhlar xarid qilinib, fondga qo‘shilgan. Bu ishlar xorijiy auksionlar, ilmiy muassasalar, xususiy kolleksiyalar hamda xalqimiz tomonidan keltirilgan manbalar hisobiga muntazam davom ettirilmoqda.

Kutubxonadan Yevropa nodir nashrlari ham o‘rin olgan bo‘lib, ularda lotin tilidagi musulmon sulolalari, turkiy xalqlar tarixi, Sharq xalqlariga oid ensiklopediyalar, Xuroson va Movarounnahrga bag‘ishlangan sayohatnomalarning XX asrgacha bo‘lgan davrda chop etilgan nusxalari mavjud. Shu bilan birga, shaxsiy kolleksiyalardan xarid qilingan qo‘lyozmalar, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisas ul-anbiyo” asari, Alisher Navoiyning XIX asr boshlarida Toshkentda ko‘chirilgan devonlari, Mavlono Jaloliddin Rumiy asarlarining turkiy tildagi tarjimalari kabi nodir manbalar ham kutubxona mazmunini yanada boyitgan.

Kutubxonada imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham alohida sharoit yaratilgan. Xususan, ko‘rish qobiliyati cheklangan yoki zaif ko‘ruvchi insonlar uchun maxsus xonalar, ixtisoslashgan dasturlar, printer va qurilmalar o‘rnatilgan, ular uchun Brayl yozuvidagi 1000 dan ortiq adabiyot keltirilgan. O‘zbekistonda ilk bor aynan shu kutubxonada shovqindan xoli kabinalar tashkil etilgan bo‘lib, ular foydalanuvchilarning onlayn muloqot olib borishida atrofdagilarga xalaqit bermaslik, shu bilan birga, suhbat va shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, “Sonic chair” audio resurslar uchun zamonaviy qurilmasi nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyoda ham birinchi marta shu yerda joriy etilgan.

Kutubxona hududida kitobxonlar uchun yashil maydon, nusxa ko‘chirish xizmati, individual shug‘ullanish uchun maxsus xonalar va bolalar uchun alohida maydon ham tashkil etilgan.

Markaz huzurida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-ma’rifiy platforma doirasida bir qator nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda. ICESCO, IRCICA, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Fransiyadagi Temuriylar jamiyati, TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ular uchun ofis xonalari tashkil etilgan. Bu mahalliy olimlar va xorijiy tashkilotlar vakillarining hamjihatlikda tadqiqot olib borishi, qo‘shma loyihalar ishlab chiqishi va ma’rifiy tashabbuslarni amalga oshirishi uchun qulay muhit yaratadi.

Umuman, mazkur markaz yurtimiz tarixi va madaniy merosini chuqur o‘rganish, asrab-avaylash va keng targ‘ib etish, islom dinining haqiqiy insonparvarlik va ma’rifatparvarlik mohiyatini ochib berish, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ilmiy va ma’naviy boylikni xalqaro miqyosda namoyon etish borasidagi ulkan salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Zero, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev markazga tashrif chog‘ida “Bugun o‘zligimizni anglash yo‘lida katta tantana bo‘ldi. Ming shukrki, to‘qqiz yil davomida niyat qilib, izlanib, harakat qilib, xalqimizning kimligini, tariximizni haqqoniy aks ettiradigan majmuani barpo etdik. Bu yerga kelgan har bir inson, ayniqsa yoshlarimiz, qanday ajdodlar avlodi ekanimizni bilishi, anglashi kerak.

Bu ulkan loyiha oddiy bir chizma emas. Uni yurak chizgan, mehr chizgan, orzu va armonlar chizgan. Qur’oni karim saqlanadigan muqaddas zal ham shunchaki yaratilgan emas. U yurakdan tug‘ilgan, xalqimizning orzu-intilishlari va buyukligini namoyon etish istagidan paydo bo‘lgan maskandir. Bu loyiha buyuk xalqimizning asl qiyofasini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ezgu niyatlar mahsulidir”, deya ta’kidladi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

KUN TARIXI

22-MART – MAHALLA TIZIMI XODIMLARI KUNI!

So‘nggi yillarda mahalla institutini isloh qilish va uni xalq hayotiga yaqin, samarali tizimga aylantirish bo‘yicha keng ko‘lamli, aholini mamnun qiladigan, ularga quvonch bag‘ishlaydigan ishlar amalga oshirilmoqda. “Mahalla yettiligi” tizimi amaliyotga tatbiq etilgandan buyon aholining muammolarini mahalla darajasida hal etish samaradorligi oshib, yettilikning kollegial qarorlari asosida mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tobora yaxshilanib bormoqda. Mahalladagi har bir imkoniyatni loyihaga aylantirib, ish o‘rni yaratish uchun mahallalarga bankir va soliqchilar biriktirildi. “Mahalla yettiligi” a’zolari tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘ini oldida hisobot berish tartibi hamda ko‘chaboshi va uy boshilar faoliyatini tashkil etish tartibining huquqiy asoslari yaratildi. Shuningdek, mahallalarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda, infratuzilmasi takomillashib, yangi, zamonaviy qiyofa bilan boyib bormoqda.

Tumanimizda 51 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud bo‘lib, 15 tasi chegara hududlarda joylashgan. 2025-yilda mahalla binolarining holati xatlov qilinib, ta’mir-talab, yaroqsiz holga kelib qolgan 23 ta mahalla binolari dasturga kiritildi. Olib



borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida ushbu mahalla binolarining 20 tasi yangitdan qurildi va 3 tasi mukammal rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirilmoqda. Ularda mahalla yettiligining faoliyat olib borishi uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Albatta, bunday zamonaviy binolarga yuqori bilimga ega, tashabbuskor, zamon bilan hamnafas kadrlar xos va mos. Mahalla davlat bilan aholi o‘rtasida mustahkam va chinakam ko‘prik vazifasini bajaruvchi tuzilma yoki maskan desak to‘g‘ri bo‘ladi. Eng muhimi, bugungi kunda mahallalarda kambag‘allikni qisqartirish, aholining daromadlarini ko‘paytirish, ishsizlikni kamaytirish, oilaviy ajrimlarni oldini olish, bir so‘z bilan aytganda, mahalla ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. Zero, har bir xonadon obod bo‘lsa, mahalla obod, mahalla obod bo‘lsa, butun jamiyat ravnaq topadi. Shu ma’noda, mahalla tizimini yanada rivojlantirish, aholi manfaatlarini ta’minlash va jamiyatda hamjihatlikni mustahkamlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hurmatli mahalla tizimi xodimlari!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari asosida 22-mart – Mahalla tizimi xodimlari kuni deb e’lon qilingani munosabati bilan sizlarni samimiy muborakbod etaman!

Yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda, aholining muammolarini hal etishda, har bir xonadonga mehr-oqibat va e’tibor olib kirishda sizlarning xizmatlaringiz beqiyos. Sizlar xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim tayanchisiz.

Fidokorona mehnatingiz va yuksak sadoqatingiz uchun sizlarga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Barchangizga mustahkam sog‘lik, oilaviy baxt-saodat, sharafli va mas’uliyatli faoliyatingizda yangi yutuqlar tilayman.

Yurtimiz ravnaqi yo‘lidagi ezgu ishlaringiz bardavom bo‘lsin!

Bayramingiz muborak bo‘lsin!

Yoqutxon MO‘MINOVA,
O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi
Bekobod tumani bo‘limi boshlig‘i

MEHNAT MUHOFAZASI

BARQAROR VA XAVFSIZ ISHLAB CHIQARISH KAFOLATI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-sonli “Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori yurtimizda mehnatni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat bo‘ldi. Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilindi.



Mazkur hujjat bilan mehnatni muhofaza qilish sohasidagi bir qator muhim nizomlar tasdiqlandi. Xususan, tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda ushbu xizmat faoliyatini tashkil etish tartibi, xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish, bilimlarini tekshirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash, shuningdek mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish hamda vakillar faoliyatini tartibga soluvchi nizomlar qabul qilindi.

Mazkur qarorning rivojlanib borayotgan yurtimizning barcha sohalari uchun ahamiyati beqiyosdir. Bugungi kunda qurilish hamda xavfi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish sohalari respublikamizning barcha hududlarida faol rivojlanmoqda. Ayniqsa, yuqori harorat, og‘ir va yirik uskunalar, bosim ostida ishlovchi agregatlar hamda kimyoviy omillar mavjud bo‘lgan sharoitlarda mehnat muhofazasiga alohida e’tibor talab etiladi.

Qarorda barcha korxonalarda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, uni yanada tizimlashtirish, har bir xodimning bilim va ko‘nikmalarini muntazam tekshirib borish belgilangan. Shuningdek, barcha ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat muhofazasi yo‘riqnomalarini amaldagi talablar asosida qayta ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, mehnat muhofazasi bo‘yicha vakillar instituti faoliyatini kuchaytirish orqali ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning oldini olish, kasb kasalliklarini kamaytirish hamda sog‘lom mehnat muhitini yaratish bo‘yicha aniq tartiblar joriy etilgan.

Shuni unutmaslik kerakki, mehnat muhofazasi faqat muhandis yoki rahbarning vazifasi emas. Bu — har bir ishchi-xodimga daxldor masaladir. Har bir xodim belgilangan yo‘riqnomalarga qat’iy amal qilishi, shaxsiy himoya vositalaridan to‘g‘ri foydalanishi, xavfli vaziyatlar haqida zudlik bilan xabar berishi, o‘quv va yo‘l-yo‘riq tadbirlarida faol ishtirok etishi lozim. Faqatgina jamoaviy mas’uliyat orqali ish joylarimizni xavfsiz va barqaror muhitga aylantira olamiz.

Yangi qaror mehnat muhofazasi tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat qonun talablarini bajarish, balki inson hayoti va salomatligini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etish demakdir.

Hurmatli ish beruvchilar!

Xavfsiz mehnat — barqaror ishlab chiqarish va oilalarimiz farovonligining mustahkam garovidir. Keling, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilishni kundalik madaniyatimizning ajralmas qismiga aylantiraylik!

O‘ktam O‘SAROV,
Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha davlat texnik inspektori

BILARMIDINGIZ!?



TIBBIYOT XODIMLARI 5 KUNLIK ISH HAFTASIGA O‘TADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 9-noyabrda qabul qilingan PQ–336-son qarorining 5-bandiga muvofiq, 2026-yil 1-apreldan boshlab davlat tibbiyot muassasalari xodimlari uchun 5 kunlik ish haftasi tizimi joriy qilinadi.

Mazkur tartibga asosan, davlat tibbiyot muassasalari xodimlari haftasiga besh kun ishlaydi. Bayram va dam olish kunlarida esa aholiga uzluksiz tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida navbatchilik asosida ish tashkil etiladi.

Yangi ish tartibini joriy etish jarayonida Mehnat kodeksi talablariga qat’iy rioya etilishi belgilangan. Avvalo, ommaviy tarzda mehnat shartlari o‘zgarishi munosabati bilan muassasalarda kasaba uyushmasi qo‘mitalari bilan dastlabki maslahatlashuvlar o‘tkazilishi lozim. Shuningdek, jamoa shartnomasi (agar mavjud bo‘lsa), ichki mehnat tartibi qoidalari hamda ish vaqti jadvallariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, ular kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi kerak.

Mehnat kodeksining 137-moddasi 2-qismiga muvofiq, xodimlar mehnat shartlaridagi o‘zgarishlar haqida kamida ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantiriladi. Bu ogohlantirish xodimlarga imzo qo‘ydirilgan holda yetkaziladi.

Shuningdek, ichki hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan barcha xodimlar to‘liq tanishtiriladi hamda kunduzgi ish rejimida ishlovchi xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritiladi.

Mazkur jarayonda Mehnat kodeksining 184-, 477- va 478-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-noyabrdagi 758-son qarorining 4- va 8-ilovalarida belgilangan haftalik va kunlik ish vaqti me’yorlariga amal qilinishi muhim hisoblanadi.

Yangi ish tartibi tibbiyot muassasalarida mehnat jarayonini yanada samarali tashkil etish, xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Lobar JUMABOYEVA

SUD VA ADOLAT

NOQONUNIY ULANISH OQIBATI



Bekobod tumanida noqonuniy elektr energiyasidan foydalanish holati fosh etildi. 1969-yilda tug‘ilgan, “Mallaboy” MFYda yashovchi I.X. o‘z yashash xonadonida elektr tarmog‘iga noqonuniy ravishda ulanib, tijorat maqsadida foydalanib kelgani aniqlangan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, fuqaro issiqxonada pomidor mahsulotini yetishtirish uchun 2 kVt va 3 kVt quvvatga ega elektr isitish qurilmalaridan foydalangan. Biroq u elektr hisoblagichdan tashqari, o‘zboshimchalik bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarmoqqa ulanib, noqonuniy tarzda energiya sarflagan.

2025-yil 9-dekabr kuni “Zafar” tuman elektr tarmoqlari korxonasi xodimlari tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv davomida mazkur qonunbuzarlik aniqlanib, jami 19 320 kVt/soat elektr energiyasidan noqonuniy foydalanilgani ma’lum bo‘ldi. Ushbu harakatlar natijasida korxona manfaatlariga 34 million 776 ming so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilgan.

Sud majlisida I.X. o‘z aybiga to‘liq iqror bo‘lib, yetkazilgan zararni qoplaganini, qilgan ishidan pushaymon ekanini bildirgan hamda oilaviy sharoitini inobatga olib, yengilroq jazo tayinlashni so‘ragan.

Sud hukmiga ko‘ra, u O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 2-qismi “d” bandi bilan aybdor deb topilib, 2 yil muddatga ish haqining 10 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi. Jazoni o‘tash tartibi tegishli nazorat organlari tomonidan belgilanadi.

Mazkur holat yana bir bor fuqarolarni elektr energiyasidan qonuniy va oqilona foydalanishga chaqiradi. Zero, noqonuniy ulanish nafaqat moddiy zarar, balki jinoiy javobgarlikka ham sabab bo‘ladi.

Asqarali JO‘RAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi 10.5-boshqarma katta prokurori,
Nuriddin XUDAYQULOV,
Toshkent viloyat prokuraturasi 10.5-bo‘lim prokurori

SO‘RAGAN EDINGIZ

KELISHUV SARI MUQOBIL YO‘L



Bugungi kunda jamiyatda yuzaga kelayotgan turli nizolarni tinch yo‘l bilan, ortiqcha tortishuv va sud jarayonlarisiz hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday samarali usullardan biri — mediatsiya hisoblanadi. Mediatsiya — bu kelib chiqqan nizoni taraflarning o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida, mediator ko‘magida hal qilish usulidir.

Mediatsiya jarayoni bir qator muhim prinsiplarga asoslanadi. Avvalo, unda maxfiylik ta’minlanadi. Ya’ni, muzokaralar davomida bildirilgan fikrlar va ma’lumotlar oshkor etilmaydi. Bu esa taraflarga o‘z fikrini erkin bayon qilish imkonini beradi.

Shuningdek, mediatsiyaning asosiy tamoyillaridan biri — ixtiyoriylikdir. Mediatsiya faqatgina taraflarning o‘zaro roziligi asosida amalga oshiriladi. Hech kim bu jarayonga majburlanmaydi. Hatto mediatsiya davom etayotgan paytda ham taraflar uning istalgan bosqichida undan voz kechish huquqiga ega.

Taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi ham muhim o‘rin tutadi. Har ikki tomon nizoni hal etishda teng ishtirok etadi, o‘z manfaatlarini erkin himoya qiladi hamda umumiy kelishuvga erishish uchun birgalikda harakat qiladi. Mediator esa bu jarayonda mustaqil va xolis bo‘lib, taraflarga faqat yo‘naltiruvchi sifatida ko‘maklashadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, mediatsiya jarayonida hech kim yarashishga majburlanmaydi. Taraflar faqat o‘z xohishiga ko‘ra kelishuvga erishadi. Bu esa qabul qilingan qarorning barqaror va adolatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mediatsiya — nizolarni madaniyatli, tezkor va samarali hal etishning zamonaviy usuli bo‘lib, jamiyatda o‘zaro hurmat va totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ulug‘bek BOLTAYEV,
Bekobod tumani Adliya bo‘limi boshlig‘i

BU MUHIM



QUTURISH – XAVFLI KASALLIK

Quturish — o‘tkir kechuvchi, o‘ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasallik bo‘lib, poliensefalomiyelit bilan xarakterlanadi. Kasallikka barcha turdagi issiq qonli hayvonlar va parrandalar moyil bo‘ladi. Kasallik odatda ikki xil shaklda — shiddatli (asosan itlarda) va falajli, ya’ni tinch shaklda kechadi.

Shiddatli shaklda itning xulqi keskin o‘zgaradi. U bezovta, gangigan holatda bo‘lib, qorong‘i joylarni izlaydi. Ko‘p yalaydi, tovushlardan cho‘chiydi, qattiq huradi, yo‘q pashshani ushlamoqchi bo‘lgandek harakat qiladi. Ishtahasi buziladi, latta, xas, yog‘och kabi narsalarni yemoqchi bo‘lib, ularni yutishga harakat qiladi. So‘lagi ko‘payadi, yutinishi qiyinlashadi, xirillab nafas oladi hamda agressivlashadi.

Falajli shaklda esa tomoq, pastki jag‘ va keyingi oyoqlar falajlanadi. Ba’zi hollarda kasallik asabiylashishsiz, nisbatan tinch o‘tadi. Bunda hayvonning og‘zidan so‘lak oqadi, yutinishi qiyinlashadi. Tomoq mushaklari falajlanishi natijasida pastki jag‘ osilib qoladi. Oyoq va tana mushaklarida falajlik belgilari kuzatilib, oxir-oqibat hayvon nobud bo‘ladi.

Inson quturish virusini asosan quturgan hayvon tishlaganda yoki uning so‘lagi jarohatga tushganda yuqtiradi. Klinik belgilar paydo bo‘lishidan taxminan 10 kun oldin quturgan hayvon so‘lagida virus mavjud bo‘ladi. Shu sababli it, mushuk yoki yovvoyi hayvon tishlagan odam, albatta, antirabik vaksina hamda ushbu kasallikka qarshi immunoglobulin olishi shart.

Kasallikning yashirin davri bir necha kundan bir yilgacha, ba’zan undan ham uzoq davom etishi mumkin. Ko‘p hollarda bu davr 3–6 hafta atrofida bo‘ladi.

Quturish kasalligining oldini olish uchun egalikdagi it va mushuklarni veterinariya mutaxassislari hamda mahalla fuqarolar yig‘ini bilan hamkorlikda ro‘yxatga olish va o‘z vaqtida emlash talab etiladi. Xo‘jalik va korxona rahbarlari hamda fuqarolar o‘z vaqtida it va mushuklarni mahalliy veterinariya mutaxassislari ko‘rigidan o‘tkazishi, quturishga qarshi emlatishi zarur. Emlangan itlarni nazoratsiz holda ko‘chaga chiqarmaslik choralarini ko‘rish lozim.


Odam yoki hayvonni tishlagan it, mushuk yoki boshqa hayvonlar ushlanib, veterinariya muassasasiga olib kelinadi va 10 kun davomida kuzatuvga olinadi. Agar shu davr mobaynida hayvonda kasallik belgilari aniqlanmasa, u emlanib egasiga qaytariladi. Agar quturish holati aniqlansa, kasallik tarqalishining oldini olish maqsadida hayvon darhol yo‘q qilinadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, hozirgi kunda tumanimiz mahallalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida veterinariya mutaxassislari tomonidan profilaktik emlash ishlari olib borilmoqda.

Qahramon TO‘XTAMISHEV,
Bekobod tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i

TIBBIY MASLAHAT

YURAKNI ASRANG – SOG‘LOM HAYOTNI TANLANG



Yurak ishemik kasalligi bugungi kunda dunyoda eng ko‘p uchraydigan kasalliklardan biri hisoblanadi. Bu kasallik yurakni qon bilan ta’minlaydigan qon tomirlari torayib yoki to‘silib qolishi natijasida yuzaga keladi. Buning oqibatida yurak mushaklariga kislorod yetishmaydi va uning faoliyatiga zarar yetkazadi.

Yurak ishemik kasalligi turiga qarab belgilari bilan farq qiladi, lekin eng ko‘p uchraydiganlari: stenokardiya (ko‘krak og‘rig‘i), ko‘krak o‘rtasida siqilish, bosilish hissi, og‘riq chap qo‘lga, yelkaga, bo‘yinga yoki jag‘ga tarqalishi mumkin. Jismoniy harakat yoki stressda kuchayadi. Nafas qisishi, ayniqsa, jismoniy zo‘riqishda. Yurak urishi tezlashishi (taxikardiya), holsizlik, charchoq, terlash, bosh aylanishi.

Yurak ishemik kasalligini oldini olish juda muhim. Shifokorlar yurak ishemik kasalligining oldini olish uchun sog‘lom turmush tarziga amal qilishni tavsiya etadilar. Ya’ni to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar qilish, zararli odatlardan voz kechish va vaqti-vaqti bilan tibbiy ko‘rikdan o‘tib turish juda muhim. Buning uchun hayot tarzini o‘zgartirish, tamaki chekishni tashlash, spirtli ichimliklarni cheklash, sog‘lom ovqatlanish (kam yog‘li, kam tuzli) zarur.

Ko‘krakda kuchli og‘riq 10-15 daqiqadan ortiq davom etsa, og‘riq dam olishda ham ketmasa, nafas yetishmasligi kuchaysa, bu holatlar Miokard infarkti belgisi bo‘lishi mumkin. Shoshilinch yordam talab qiladi.

Yurak – inson hayotining asosi. Uni asrash har bir insonning o‘z qo‘lida.

Umida XIDIROVA,
Bekobod shahar Markaziy shifoxonasining Anestiziologiya-reanimatsiya navbatchi hamshirasi

TANTANA

SEHRLI QUCHOQ

Navro‘z bayramiga atalgan tadbirimizga atay atlas ko‘ylak tiktirdim. Kun sayin yangi-yangi matolar, kiyimlar urf bo‘layotgan zamonamizda milliy atlasimiz hech qachon urfdan qolmasligi, eng oliy o‘rinda turishi shak-shubhasiz. Shunday bo‘lishiga qaramay, yangi kelinligimda kiyganimni hisobga olmasa, shuncha yil davomida atlas kiymaganim uchun o‘zimni koyidim. Atlasni sog‘inibman.

Tadbir kuni erta tongda shoshib maktabga ketayotganimda narigi ko‘chada yashaydigan bir buvini uchratib qoldim. Ko‘chada, do‘konda ko‘p duch kelganman, ammo salom-alikdan nariga o‘tmagan edik. Hozir esa yaqin kishisiday bag‘riga bosib ko‘rishishi, ko‘ylagimni hidlashi menga biroz erish tuyuldi.

— Atlas... Hidi boshqacha-da. Bu mato, bu hid yoshligimni yodga soladi...

Yo‘limiz bir ekan, suhbatlashib ketdik.

— To‘yimga sariq tomchi atlas qilmasangiz, erga tegmayman, deb onamni rosa kuydirgandim. Onam sho‘rlikka men aytgan atlasni topish oson bo‘lmagan. Kamiga, u paytlar bir kiyim atlas ancha qimmat edi. Dadamning oyligi ro‘zg‘ordan ortmasdi. Onam tomchi atlas uchun qo‘lidagi uzugini sotgani esimda.

Men hech nima so‘ramasam ham, buvi gapirishda davom etaverdi:

— Hozirgi yoshlarga havasim keladi. Istagan matosini bu yerda topilmasa, chet eldan oldirib kelib bo‘lsa ham kiyadi.

Buvi ko‘zidan oqqan yoshini ko‘ylagining yengiga artarkan:

— Rahmat, qizim. Buvingiz o‘zi shunaqa ezma kampir. Xafa bo‘lmaysiz-da endi. Egningizdagi ko‘ylakni ko‘rib ko‘zim quvnab ketdi. Biram yarashibdi.

Suhbatimiz maktabga yaqinlashganimizda o‘z nihoyasiga yetdi.

— Yoshsizlar. Mana shunday chiroyli kiyinib yuringlar. Hamma kiyim yoshlikda yarashadi, — deya yana bag‘riga bosib xayrlashdilar.

Ajib tuyg‘ular og‘ushida sinfga kirdim. Sahnaning kamchiliklarini tuzata boshladim. Birin-ketin o‘quvchilar kela boshladi. Har biri sinfga kirar ekan, menga boshqacha qarab qo‘yar edi. Doim oq kofta, qora yubkada ko‘rgan o‘quvchilarim meni atlas ko‘ylak va do‘ppida ko‘rib hayratini yashira olmadilar.

O‘quvchilarim ham atlas ko‘ylak va do‘ppida edi. Ko‘zlaridagi o‘zgacha quvonchni ko‘rib, ularni bag‘rimga chorladim. Shunday deyishimni ich-ichidan istashgani yuzlarida namoyon edi. Yugurganicha barchasi quchog‘imga otildi.

— Ustoz, har kungidan ham chiroyli bo‘libsiz. Atlas ko‘ylak rosa yarashibdi. Do‘ppingiz bizniki bilan bir xil ekan, — deya biri qo‘yib, biri maqtashi kayfiyatimni yanada ko‘tardi.

Tadbir boshlanishiga yaqin bir o‘quvchimning onasi yonimga kelib asta-sekin:

— Ustoz, mening o‘g‘limni ham bir quchoqlang. O‘rtoqlarini quchoqlaganingizda u tashqarida edi. “Men qolib ketdim”, deb xafa bo‘lyapti, — dedi.

O‘quvchimga qaradim. Uning nigohlarida sinfdoshlariga havas bor edi. Ismini aytib chaqirdim. Tortinibgina



yonimga keldi. Belidagi belbog‘ini to‘g‘rilash bahonasida bag‘rimga bosdim.

Qulog‘iga pichirlab: “Bugungi sahna ko‘rinishida hammani, ayniqsa, onangni lol qoldirishing kerak”, dedim.

Avvaliga ikki yuzi qizardi, so‘ngra o‘zini tutib olib:

— Ustoz, uddalayman. Hamma so‘zini yodlab olganman, — deya meni mahkam quchoqladi.

Tadbir o‘ylaganimdan-da zo‘r o‘tdi. Men hamon atlas ko‘ylak, buvining ko‘z yoshlari, o‘quvchilarim esa “Sehrli quchoq” ta’sirida edilar.

Muhayyo O‘ROQOVA,
Bekobod tumani 2-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

DEPUTAT MINBARI

BIR JAMIYAT — TENG HUQUQ



Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, avvalo, inson qadrini qanday e’zozlashi va har bir fuqaroning munosib hayot kechirishini ta’minlashga qanchalik e’tibor qaratishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish hamda ular uchun inklyuziv muhit yaratish davlat va jamiyat zimmasidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar ham jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida ta’lim olish, mehnat qilish, sayohat qilish, axborotdan foydalanish, ijtimoiy himoya, tibbiy xizmatdan foydalanish, madaniy hayot va siyosiy jarayonlarda ishtirok etish kabi asosiy huquqlarga ega. Bu huquqlar xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan bo‘lib, BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi orqali kafolatlanadi hamda davlatlar zimmasiga aniq majburiyatlar yuklaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, infratuzilmani moslashtirish, ya’ni panduslar, ovozli svetoforlar va maxsus yo‘lakchalar tashkil etish, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, bepul reabilitatsiya xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, protez-ortopediya vositalari bilan ta’minlash, mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish kabi muhim chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu islohotlar nogironligi bo‘lgan insonlar hayotini yengillashtirish bilan birga, ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Jamiyatda inklyuzivlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning ma’naviy va iqtisodiy salohiyati ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Nogironligi bo‘lgan insonlarga imkoniyat yaratish bu xayriya emas, balki ularning ortiqcha to‘siqlarsiz yashashga bo‘lgan qonuniy huquqlarini ta’minlashdir. Ularning bilim va salohiyatidan samarali foydalanish esa nafaqat o‘zlari, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish faqatgina qonunlar yoki davlat dasturlari bilan cheklanib qolmaydi. Bu, eng avvalo, har birimizning insonparvarlik, hurmat va mas’uliyat tuyg‘ularimiz bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, jamiyat barcha uchun teng imkoniyatlar yaratilgan taqdirdagina chinakam adolat va taraqqiyotga erisha oladi.

Iroda QODIROVA,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati, XDP a’zosi.

Bugungi kunda ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda 2026-yil 3-mart kuni qabul qilingan PF-33-son farmon bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

AYOLLAR VA BOLALAR HIMOYASI — JAMIYAT BARQARORLIGINING ASOSI



Mazkur farmon ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga qaratilgan muhim hujjatdir.

Farmonda, eng avvalo, zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha samarali tizim yaratish, bu borada davlat organlari hamkorligini kuchaytirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Shuningdek, yoshlarni ongli ravishda oila qurishga tayyorlash, erta nikohlarning oldini olish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash kabi masalalar ham ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

E’tiborlisi shundaki, mazkur hujjat doirasida ayollar va bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlik holatlariga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish, jabrlanganlarga esa har tomonlama — huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Ta’lim muassasalarida ham bu boradagi targ‘ibot ishlari kuchaytiriladi. Yoshlar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish orqali kelgusida turli salbiy holatlarning oldini olish maqsad qilingan.

Albatta, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash har bir oiladan boshlanadi. Oila esa mehr-oqibat, hurmat va o‘zaro ishonchga asoslangan bo‘lsa, bunday muhitda voyaga yetgan farzandlar ham barkamol inson bo‘lib ulg‘ayadi.

Xulosa qilib aytganda, PF-33-son farmon — ayollar va bolalar huquqlarini ta’minlash, ularni har qanday zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda jamiyatda sog‘lom muhitni qaror toptirish yo‘lida muhim qadamdir. Ushbu hujjatning izchil amalga oshirilishi esa yurtimizda inson qadri yanada ulug‘lanishiga xizmat qiladi.

Sadoqat XIDIROVA,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati, XDP a’zosi

SAN’ATGA OSHNO QALBLAR TAROVATI

HISOBOT KONSERTI

Bekobod tumani 16-sonli bolalar musiqa va san’at maktabida Xalq cholg‘ulari, an’anaviy xonandalik hamda estrada xonandaligi bo‘limlari o‘quvchilarining hisobot konsert dasturi yuqori saviyada bo‘lib o‘tdi.

Mazkur konsert maktab jamoasi hamda iqtidorli o‘quvchilarning bir yillik mehnati, izlanishlari va erishgan yutuqlarining o‘ziga xos sarhisobi bo‘ldi. Tadbir davomida sahnaga chiqqan yosh iste’dod egalari milliy va zamonaviy kuy-qo‘shiqlarni mahorat bilan ijro etib, tomoshabinlarga unutilmas musiqiy lahzalarni tuhfa etdilar.

Ayniqsa, xalq cholg‘ulari bo‘limi o‘quvchilarining jonli ijrolari, an’anaviy xonandalik yo‘nalishidagi mumtoz qo‘shiqlar hamda estrada yo‘nalishidagi zamonaviy chiqishlar konsertga o‘zgacha ruh bag‘ishladi. Har bir chiqishda o‘quvchilarning sahna madaniyati, ijrochilik mahorati va san’atga bo‘lgan mehr-muhabbati yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olingan konsert dasturi yosh ijrochilarga yanada ilhom bag‘ishladi. Ularning har bir chiqishi zalda qarsaklar bilan qarshi olinib, ko‘tarinki kayfiyat hukm surdi.

Ta’kidlash joizki, bunday hisobot konsertlari nafaqat o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon etadi, balki yosh avlodni san’atga mehr ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shahnoza KAMOLOVA,
Bekobod tumani 16-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi direktori



DOLZARB MAVZU

O‘ZBEKISTON SUV INQIROZI YOQASIDAMI?

Markaziy Osiyo bugungi kunda nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki millionlab odamlarning hayotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jiddiy suv inqirozi bilan yuzlashmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslaridan samarasiz foydalanish hamda aholi sonining ortishi mintaqada chuchuk suv tanqisligini yanada kuchaytirmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, so‘nggi 10 yil ichida mamlakatda suv hajmi 12 foizga kamaygan, faqat o‘tgan yilning o‘zida esa bu ko‘rsatkich yana 15 foizga qisqargan. Bu holat suv resurslari masalasi O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Jahon Resurslari Instituti e’lon qilgan reytingga ko‘ra, suv tanqisligi bo‘yicha O‘zbekiston 164 davlat orasida 25-o‘rinni egallagan. Ayrim hududlarda, xususan Qoraqalpog‘istonda suv yetishmovchiligi ekologik va ijtimoiy muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Markaziy Osiyo okean va dengizlardan uzoqda joylashgan qurg‘oqchil mintaqa bo‘lib, bu yerda suv resurslari strategik ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda esa suv manbalarining atigi 20 foizi mamlakat hududida shakllanadi, qolgan 80 foizi esa qo‘shni davlatlar — Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarida hosil bo‘ladi. Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko‘ra, 2050-yilga borib, Sirdaryo havzasida suv hajmi 5 foizgacha, Amudaryo havzasida esa 15 foizgacha kamayishi mumkin. Boshqa tomondan, aholi sonining ortishi suvga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2030-yilga borib O‘zbekistonda suvga bo‘lgan ehtiyoj 7 milliard kub metrga yetadi, 2050-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich deyarli ikki barobarga ortishi mumkin. Suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanishning eng fojeali oqibatlaridan biri — Orol dengizining qurishidir. Bir paytlar dunyodagi eng yirik ichki suv havzalaridan biri bo‘lgan Orol dengizi bugungi kunda katta ekologik fojia ramziga aylangan. Orol dengizi qurishi natijasida 5 million gektar maydonda yangi sahro — Orolqum paydo bo‘ldi.



XX asr o‘rtalariga qadar Orolbo‘yi hududi boy tabiiy ekotizimga ega edi. Bu yerda 638 turdagi o‘simlik, 38 turdagi baliq mavjud bo‘lgan. Baliqchilik Orolbo‘yi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan. 1950–60-yillarda har yili 30–35 ming tonna baliq ovlanib, qayta ishlangan va eksport qilingan. Bundan tashqari, dengiz mintaqa iqlimini barqarorlashtirib turuvchi muhim ekologik omil edi. Orol bug‘lanish orqali hududda namlikni saqlab, yozgi jaziramaning kuchayib ketishini va qishning haddan tashqari sovuqlashishini oldini olgan.

1960-yilgacha Orol dengizining asosiy ko‘rsatkichlari

- **Umumiy maydoni — 68,9 ming km²**
- **Suv hajmi — 1083 km³**
- **Maksimal uzunligi — 426 km**
- **Eng chuqur nuqtasi — 68 metr**
- **O‘simlik turlari — 638 tur**

1960-yillardan boshlab Orol dengizi muammosi keskinlashdi. Bunga Markaziy Osiyoning asosiy daryolari — Amudaryo va Sirdaryo suvlarining keng ko‘lamli sug‘orish tizimlariga yo‘naltirilishi sabab bo‘ldi. Ilgari bu daryolar Orolga har yili 56 kub kilometrgacha suv olib kelgan bo‘lsa, keyinchalik bu ko‘rsatkich keskin kamaydi. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida paxta yetishtirishni kengaytirish siyosati natijasida yirik irrigatsiya tizimlari barpo etildi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, so‘nggi 80 yil ichida Orol dengizi 1 milliard tonnadan ortiq suvni yo‘qotgan. Bu jarayon Yer qobig‘ida ham o‘zgarishlarga olib kelib, dengiz tubi yiliga o‘rtacha 7 millimetrga ko‘tarilmoqda.

Orol dengizi qurishi yerlarning sho‘rlanishi va degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi, iqlim o‘zgarishining kuchayishi, aholi salomatligining yomonlashuvi kabi jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Orol dengizi tubidan ko‘tarilayotgan qum va chang bo‘ronlari yiliga 44 million dollardan ortiq iqtisodiy zarar keltiradi.

Orol dengizi fojiasi insoniyatning tabiat resurslariga nisbatan noto‘g‘ri munosabati qanchalik og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatadi.

Bugungi kunda esa yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2030-yilga borib suvga bo‘lgan talab keskin ortadi, 2050-yilga kelib esa daryolardagi suv oqimi 15 foizgacha kamayishi mumkin. Bu esa mintaqani suv qashshoqligi yoqasiga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Shu bois transchegaraviy suv diplomatiyasini kuchaytirish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ekologik xavfsizlikni ustuvor yo‘nalishga aylantirish mintaqa uchun muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Orol fojiasidan chiqarilgan saboqlar kelajakdagi suv inqirozining oldini olishda muhim yo‘l ko‘rsatkich bo‘lishi zarur.

Valisher ABIROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
Sevinch RAHIMOVA,
TDSHU Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

ZAMONDOSH QAHRAMON

ILM VA MATONAT YO‘LIDA

Bugungi kunda jamiyatimizda ilmga intilayotgan, o‘z orzu-maqsadlari yo‘lida qat’iyat bilan harakat qilayotgan ayollar safi tobora kengayib bormoqda. Ular nafaqat o‘z hayot yo‘lini mustaqil belgilamoqda, balki jamiyat rivojiga ham munosib hissa qo‘shmoqda. Ana shunday ibratli ayollardan biri — Mushtariy Jabborovadir.

Mushtariy Jabborova 1996-yil Bekobod tumanida ziyoli oilada tavallud topgan. Besh farzandli oilada ulg‘aygan Mushtariy 3 nafar akasi va 1 nafar ukasi orasida voyaga yetdi. Yoshligidan ilmga chanqoq, intiluvchan hamda sportga qiziqqan holda ulg‘aygani uning keyingi hayot yo‘lida muhim poydevor bo‘ldi.

2012-yilda Olmazor tumanidagi 134-umumta’lim maktabini tamomlagan qahramonimiz keyinchalik Toshkent bank kollejida tahsil oldi. Hayot yo‘lida turmush qurib, farzandli bo‘lishiga qaramay, uning ilm olishga bo‘lgan intilishi susaymadi. Aksincha, bu intilish uni yana ta’lim yo‘liga qaytishga undadi.

Bugungi kunda Mushtariy Jabborova Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universitetining Bekobod filialida muhandislik va texnika iqtisodiyoti yo‘nalishida tahsil olmoqda. U o‘qish jarayonida bilimga chanqoqligi, tirishqoqligi va izlanishlari bilan tengdoshlari orasida ajralib turadi.

Mushtariy ilmiy faoliyat bilan ham faol shug‘ullanib, “Iqtisodiyotda innovatsiyalarning tutgan o‘rni” mavzusida ilmiy maqola yozgan. Ushbu ilmiy ishda innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati, iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik, investitsion muhit hamda raqamli iqtisodiyot sharoitidagi o‘rni ilmiy asosda yoritib berilgan. Uning mazkur ilmiy ishi xalqaro ilmiy-amaliy tanlovda yuqori baholanib, ilmiy kengash tomonidan e’tirof etildi. Erishgan yutuqlari uchun esa “Vatanga sodiq” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mushtariy Jabborova nafaqat ilm yo‘lida, balki oilada namunali ona hamdir. Ikki farzandning onasi sifatida u bolalarining ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. Bugungi kunda uning 10 yoshli qizi va 8 yoshli o‘g‘li rus hamda ingliz tillarini yaxshi o‘zlashtirib bormoqda. Ayniqsa, qizining 2025-yilda Qatarda o‘tkazilgan xalqaro ingliz tili olimpiadasida 1-o‘rinni egallab, Fransiyaning Parij shahriga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani alohida e’tiborga loyiqdir. Bu yutuq orqali u xalqaro maydonda Vatanimiz bayrog‘ini munosib ravishda ko‘tarishga muvaffaq bo‘ldi.



Qahramonimiz erishayotgan barcha yutuqlarida ota-onasi va ustozlarining qo‘llab-quvvatlashini alohida e’tirof etadi. U yurtimizda ayollar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan samarali foydalanib, o‘z ustida tinimsiz ishlamoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Mushtariy Jabborovaning hayot yo‘li — bu matonat, intilish va fidoyilik namunasi. U ilm va oila mas’uliyatini uyg‘un holda olib borib, kelajakda mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan yetuk mutaxassis bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilgan. Uning ibratli faoliyati esa ko‘plab yoshlar, ayniqsa, qizlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Sarvinoz SHERALIYEVA

OILA VA MA’RIFAT

MAHALLADA ENG FAOL KITOBXON OILA



Bugungi kunda kitob o‘qish insonning ma’naviy kamolotga erishishida, dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlodni bilimli, tafakkuri teran, mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalashda kitobning o‘rni beqiyosdir. Mahallamizda kitobga mehr qo‘ygan, uni oilaviy qadriyat darajasiga ko‘targan namunali oilalar ko‘pligi quvonarli hol.

Shunday ibratli oilalardan biri — “Ilg‘or” MFY, Uzumzor ko‘chasida yashovchi Namazov Abduxalil ota oilasidir. Ular kitobxonlikni hayot tarziga aylantirib, butun mahallada “eng faol kitobxon oila” sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur oila a’zolari bo‘sh vaqtlarini samarasiz mashg‘ulotlarga emas, balki mutolaaga bag‘ishlashni odat qilgan. Ularning xonadonida kitoblar doimo e’zozda — dasturxon ustida, qo‘llarida yoki yonlarida bo‘ladi. Oila a’zolari turli mavzulardagi adabiyotlarni mutolaa qilib, o‘zaro fikr almashadilar, o‘qigan asarlari yuzasidan suhbatlar tashkil etadilar. Bu esa farzandlarida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirmoqda.

E’tiborlisi, ushbu oilada kattalar ham, bolalar ham kitob o‘qishga birdek qiziqadi. Bu esa oilada sog‘lom ma’naviy muhit hukm surayotganidan dalolat beradi. Farzandlarning bilimga chanqoqligi, odob-axloqi va intizomi ana shu tarbiyaning yorqin natijasidir.

Kitob — insonning eng yaqin do‘sti va ishonchli yo‘ldoshidir. Namazovlar oilasi aynan mutolaa orqali o‘z dunyoqarashini boyitib, mahalla ahli uchun chinakam ibrat bo‘lib kelmoqda. Ularning ahilligi, ilmga bo‘lgan hurmati va kitobga sadoqati boshqalarni ham ezgu yo‘lga undamoqda.

Mahallamizda ana shunday kitobxon, ma’rifatli oilalar safi yanada kengayib, kitobxonlik madaniyati tobora rivojlanaversin!

Hakima NAMAZOVA,
Bekobod tuman Axborot-kutubxona markazi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati rahbari

YOSHLAR IJODI

QALAM SEHRI ILA YARALGAN SATRLAR

Bekobod tumani 1-umumta’lim maktabida faoliyat yuritayotgan “Qalam sehri” ijodiy to‘garagi o‘quvchilarning iste’dodini kashf etish, ularning badiiy tafakkurini rivojlantirish va ijodga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishda muhim o‘rin tutib kelmoqda. Mazkur to‘garak nafaqat she’r va hikoya yozishga qiziqqan yoshlarni birlashtiradi, balki ularning fikrlash doirasini kengaytirib, so‘z boyligini oshirishga, mustaqil va erkin mushohada yuritishiga ham xizmat qiladi.

To‘garak mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar badiiy asar yaratish sir-asrorlari bilan tanishib, o‘z ijod namunalari ustida ishlashadi, o‘zaro fikr almashish orqali tajriba orttiradilar. Eng muhimi, bu yerda har bir yosh qalam egasining iste’dodi qo‘llab-quvvatlanadi va rag‘batlantiriladi. Natijada o‘quvchilarda nafaqat ijodiy qobiliyat, balki o‘z fikrini ravon va ta’sirchan ifodalash ko‘nikmalari ham shakllanadi.

Quyida ushbu “Qalam sehri” ijodiy to‘garagi a’zolarining ijodidan namunalarni e’tiboringizga havola etamiz. Ularning har bir satrida samimiyat, orzu-intilish va beg‘ubor qalb aks etganini his etasiz.

Yosh ijodkorlarga esa kelgusi faoliyatlarida ulkan zafarlar, ilhom va muvaffaqiyatlar tilaymiz!

TAHRIRIYAT



MUZAFFAR IRISBOYEV

KETMA BOLALIK

Ulg‘ayganim sezilib qoldi,
Ildamladim oliygoh tomon.
Qalbga mehr, muhabbat soldi,
Asli o‘zim bolaman hamon.

Onam meni erkalatgan chog‘
Bolalikka qaytaman yana.
Kattalikka ochaman quchoq,
Bolalardek qilib tantana.

Otam boshin egalladi oq,
Kamayibdi sochin qorasi.
Onam so‘zi yurakka — chiroq,
Men ularning erka bolasi.

Qalbda kichik g‘uborlarim bor,
Yashnar bahor g‘unchalarida.
Yurgim kelar takror va takror,
Bolalikning ko‘chalarida.

Totaman ulg‘ayish ta’mini,
Dilimni o‘rtaydi bir hadik.
Kechirib tilagim kamini,
Yiroqqa ketmagin, bolalik.



MAFTUNA MUSTAFOYEVA

SAMARQAND

Azim qadim shahar bu,
Qaddi ko‘kni bo‘ylagan.
Bibixonim nomidan
Temurbekka so‘ylagan.


Ne qirg‘in, ne urushlar
O‘tdi uning boshidan.
Devorlari nuradi
Ulug‘bekning yoshidan.

Alp bahodir dushmanning
Sindirdi qilichini.
Butun umr o‘ylardi
Xalqining tinchligini.

Samarqandning chinakam
Asil o‘zbek bolasi.
Dilim ezar har safar
Ulug‘bekning nolasi.

Tuprog‘i tilloga teng,
Shifobaxshdir giyohi.
Daryodek oqib kelar
Butun dunyo sayyohi.

Vatanimning bezagi,
Xalqimning asal-qandi.
Dunyoni lol aylagan
O‘zbegim Samarqandi.



SEVINCH ALIBOYEVA

BAHOR NAFASI

Kechalari uxlamay,
Tayyorladik sumalak.
Bahoriy ayyom yaqin,
Qizlar sochi jamalak.

Bolalarning quvonchi
Sig‘mas bugun olamga.
Momomning duolari
Kuch bag‘ishlar tanamga.

Daraxtlarning gulida
Yaltiraydi marvarid.
Xuddi ko‘kdan quvonchni
Bizlarga qilar xarid.

Ko‘kda quyosh nur sochib,
Boqib turibdi arang.
Shirin sumalak ta’min
Bolalardan bir so‘rang.

Bahorda shoirlarning
O‘tkirlashar qalami.
Navro‘zdagi sumalak
O‘zgacha bo‘lar ta’mi.

OTAM




MARJONA ULUG‘BEKOVA

Dunyoning quvonchi sizda mujassam,
Hayotda eng yaxshi odamsiz, ota.
“Bolam”, deysiz, faqat bizni o‘ylaysiz,
Biz uchun o‘zgacha olamsiz, ota.

Yuzingizdan ezgu nur yog‘ar har dam,
Mehnatdan qavargan ikki qo‘lingiz.
Intizor kutadi: qachon kelar, deb
Yo‘lingiz poylaydi qiz-u o‘g‘lingiz.

Siz borsiz — to‘kisdir oilamiz baxti,
Siz borsiz — butundir bag‘rimiz bizning.
Sizsiz topolmaymiz orzu yo‘limiz,
Javobi topilmas har bitta so‘zning.

Dunyoning quvonchi sizda mujassam,
Hayotda eng yaxshi odamsiz, ota.
“Bolam”, deysiz, faqat bizni o‘ylaysiz,
Biz uchun o‘zgacha olamsiz, ota.



IMRONBEK TASHBAYEV

KITOB

Ulug‘lar aytganidek,
Kitob — bilim ziynati.
Qulog‘imda jaranglar
Yurtboshimiz da’vati.

Ko‘proq kitob o‘qisak,
Izlansak borgan sari,
Ustozlar der: kitobni —
Asl bilim gavhari.

Har kun, har bir lahzada
Kitobga tut qo‘lingni,
Shunda o‘zi ochadi
Kelajakka yo‘lingni.

Sahifani Mirzabek SHERBEKOV tayyorladi.

LAHZA SEHRI

MILLIY RUH – NIGOHLARDA AKS ETGAN GO‘ZALLIK

Bugungi sahifamizda fotojurnalistlar Sultonboy Dehqonov va Nazira Boymurodovaning ijodiy ishlariga alohida o‘rin berdik. Ularning har bir surati — bu shunchaki tasvir emas, balki xalqimizning boy ma’naviy merosi, urf-odatlari va milliy ruhini o‘zida mujassam etgan badiiy lavhalardir.

Sultonboy Dehqonov obyektivida milliy libosdagi yigit-qizlar, ayollar timsolida qadriyatlarimizning yashovchanligi, an’analarimizning davomiyligi yorqin aks etadi. Har bir kadrda bayramona kayfiyat, milliylikka bo‘lgan faxr va o‘ziga xos go‘zallik sezilib turadi.

Nazira Boymurodovaning suratlarida esa samimiyat va mehr uyg‘unlashadi. Milliy libosdagi buvi va qizaloq timsoli orqali avlodlar davomiyligi, mehr-oqibat va tarbiya rishtalari ifodalanadi. Ayniqsa, bolalarning chaqnab turgan nigohlarida ertangi kunimizga bo‘lgan ishonch, beg‘uborlik va quvonch mujassam.

Ushbu suratlar orqali biz milliy qadriyatlarimizni nafaqat ko‘ramiz, balki his qilamiz. Zero, milliylik — bu o‘tmish emas, balki bugunimiz va kelajagimizdir.

TAHRIRIYAT







Sultonboy DEHQONOV olgan suratlar.










Nazira BOYMURODOVA olgan suratlar.

YOSH MUSAVVIR



Diyora ABDULAZIZOVA,
Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining 6- “A” sinf o‘quvchisi



Nilufar MAXAMADXALILOVA,
Bekobod tumani 2-umumta’lim maktabining 1- “A” sinf o‘quvchisi





Rahima ABDUVAHOBOVA, Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining 5- “A” sinf o‘quvchisi



Iroda QO‘ZIBOYEVA, Bekobod tumani 2-umumta’lim maktabining 1- “A” sinf o‘quvchisi

HIKOYA

YAXSHI NIYAT

Bugun Odil ishdan qaytayotib, mahallasidagi do‘kon oldida turgan, do‘sti Qosimning “spark”iga ko‘zi tushdi-yu yoshlik paytida do‘sti bilan dalada mol-qo‘ylarini boqqanini... ko‘chada birga to‘p tepganini... birgalikda maktabga borganlarini esladi. Ko‘ziga qalqib chiqqan ko‘z yoshlarini artti-yu do‘konning eshigini bor kuchi bilan ochdi. Eshikning qarsillashiga do‘konchi Dilshod bilan Qosim cho‘chib, o‘girilishdi. Odil do‘konchi bilan qo‘l berib so‘rashdi. Qosimni esa quchoqlab oldi.

— Koreyadan qachon kelding?

— Kecha, oqshomdan so‘ng.

— Hech kimga aytmasdan, besh yilga yo‘q bo‘lib kettinga?

— Aytishga ulgura olmadim. Ishxonadan Koreyadagi qurilish mollari ishlab chiqariladigan korxonamizga shoshilinch yuborishdi.

— Uying ham qarovsiz qolib ketdi.

— Xabaring bor-ku. Ota-onam birin-ketin o‘tganlariga ham o‘n yildan oshdi.

— Ha, to‘g‘ri. Joylari jannatdan bo‘lsin.

— Ilohim aytganing kelsin.

— Oying meni juda yaxshi ko‘rardilar. Qorachadan kelgan bo‘lsam ham oq bolam derdilar.

— Esimda. O‘ziyam juda qora edingda.

— Sen meni hafa qilding.

— Kechir.

— Kechirishim uchun bolaligimizdagi o‘tirishlarning birini qaytarasan.

— Do‘stim, sendan o‘tirish aylansin.

— Qachon ekan shu o‘tirish?

— Bugun.

— Qayerda?

— Bizning o‘sha tomi qiyshiq uyimizda-da.

Shu bilan ikki do‘stning suhbati tugadi. Ular o‘z uylari tomon yo‘l olishdi...

Kechki payt Odil Qosimlarnikiga borib, ko‘cha darvozani taqillatdi. Ichkaridan do‘stining: “Kiraver”, degan ovozini eshitib hovliga kirdi. Qosim ayvondan sakrab tushib Odilni kutib oldi. Ikkovlari ayvonga chiqishdi. Qosim dasturxon tuzay ketdi. Odil buni ko‘rdi-yu gap boshladi:

— Do‘stimning oldida uyalib qolmay debsan-da? Qosim kulgancha:

— Sizni ko‘nglingizni olaman deb harakat qilyapmiz-da...

— Qo‘ymaysan, esingdan chiqmagan bo‘lsa bo‘ldi.

— Esimda, oshga bir bog‘ tok qo‘shib damlanadi. Ha, aytgancha, shakoropsiz oshni osh demasdilar chamasi.

— Hali ham esingda ekan. Unutmabsan qoyil...

Oradan biroz o‘tgach, o‘choqda dam yegan osh dasturxonga tortildi. Ikkovlon ishtaha bilan lagandagi oshni yeyishdi. Odil:

— Gap yo‘q, hali ham o‘sha-o‘sha Qosim tok osh. Qosim kamtarlik bilan:

— Ha endi, sal kam o‘n yil oshpazlik qilganman. Osh damlashni hech qachon unutmasam kerak. Odil sekin mavzuni Koreya tomon burdi:

— U yerlar qanday ekan?



— Koreya tabiati, havosi juda toza mamlakat ekan. Shunchalik tozaligidan hatto ko‘chada oyoq kiyimsiz yursa ham bo‘lar ekan.

— Qiynalmadingmi? U yerlarda o‘zbeklar ham bor ekanmi?

— Ikki yil deganda koreyschani o‘rganib oldim. Ishing tayin bo‘lsa qiynalmas ekansan. O‘zbeklar ham yetarlicha. Lekin ba’zilariga qoyil qolmadim.

— Nega?

— Borganimga ikki kun bo‘lmasdan aldashdi.

— Qanday qilib?

— Kafeda ovqatlandim. Ko‘chaga chiqib mehmonxonaga borish uchun taksi ushladim. Manzilimgacha o‘n kilometr bo‘ldi. Taksichi mendan yuz von oldi. Ertasiga korxonaga borib koreyslardan bir kilometr uchun taksistlar qancha olishini so‘radim. Ular: “Bir kilometrga bir yoki ikki von berish kerak”, deyishdi.

— Alam qilgandir?

— Ha, alam qildi. O‘zbekistonda ayrim haydovchilar chet eldan kelgan sayohatchilarga, og‘ziga kelgan narxni aytishadi-ku...

— Insof sari braka, degan gap bor. Aytishadi-ku: “Birovning haqqi baribir birovga yuqmaydi”, deb. Bizdagi haydovchilarga ham Xudo insof berib qolar.

— Xudodan bandalarga insof so‘ralmaydi. Farosat so‘raladi.

— Ha, to‘g‘ri aytasan. Sen nega qaytding? Ko‘pchilik orzu qilib, so‘ng qaytmaydigan joylarda qolmading?

— Hamma nima qilsa, men ham shuni qilaveramanmi? Ota-bobolarimiz: “O‘z uying, o‘lan to‘shaging” deb, bejizga aytishmagan-ku. Ota-onamdan qolgan uyning chirog‘ini yoqib o‘tirishni istadim. Uning ustiga yoshligim mana shu loy ko‘chada, shu hovlida o‘tgan...

— Ha, bor bo‘l, do‘stim. Ko‘nglimdagi gapni aytding. Nima uchun o‘sha yerlarda uylanmading?

— U yerda uylanganimda, vatanimga qayta olmasdim. Uning ustiga avlodim aynib ketardi. Undan ko‘ra, o‘z millatimdan uylanishni ma’qul ko‘rdim.

— Ha, to‘g‘ri o‘ylabsan. Aytishadi-ku: “Uch so‘m pul, bir kalla qand”, deb... Yanagi yilga qolmasdan to‘yingni, albatta, o‘tkazamiz.

Samariddin QODIRIY

YOSH KITOBXON UCHUN

GO‘ZAL GULLAR

Yilning mart oyi edi. Barcha o‘quvchilar “Navro‘z” bayramini nishonlab, ta’tilni ham yakunlab, yana o‘qishga kirishgan edilar. Dars boshlanishini bildirgan qo‘ng‘iroq sadolari Zilolani bir zum shoshirib qo‘ydi. U uyqudan kechroq uyg‘ongani sababli biroz kechikayotgan edi. Shoshilgancha maktab tomon dadil qadamlar bilan ketib borardi.

Nimagadir uning ko‘zlari piyodalar yo‘lagi chetidagi bir xaltachaga tushdi. Zilola ichida nima borligini bilgisi kelib, uni qo‘liga oldi va tugunini yechdi. Xaltacha ichida turli xil o‘simlik urug‘lari bor edi. U atrofga qaradi — yon-atrofda faqat o‘zi kabi maktabga shoshilayotgan o‘quvchilardan boshqa hech kim yo‘q edi.

“Bu urug‘larni uyga olib borib eksam, qanday o‘simlik ekanini bilib olaman”, degan fikr xayoliga keldi. Chunki biologiya ustozlari Akrom aka ularga shu mavzuda dars o‘tib, topshiriq ham bergan edi.

Zilola maktabdan qaytgach, onasiga yo‘lda bir xaltacha topib olganini, unda notanish urug‘lar borligini va ularni hovli chetidagi ariq bo‘yiga ekib ko‘rmoqchi ekanini aytdi. Onasi ham bunga rozi bo‘ldi. Ona-bola urug‘larni ekib, ustidan suv sepib qo‘yishdi.

Oradan uch-to‘rt kun o‘tgach, o‘sha joydan turli xil gullar unib chiqdi. Zilola har kuni bo‘sh vaqt topishi bilan ularni parvarish qilar edi. Vaqt o‘tib, gullar g‘uncha tugib, ochila boshladi. Ular orasida gultojixo‘roz, chinnigul, nomozshomgul va tovusgullar rang-barang bo‘lib ochilib, husn-u jamoli bilan barchani maftun etdi.

Kunlardan bir kuni hovlidagi gullar o‘zaro bahslashib qolishdi. Gultojixo‘roz nomozshomgulga qarab:

— O‘rtoqjon, nega endi egamiz bizdan ko‘ra chinnigulni ko‘proq yaxshi ko‘radi? — deb shikoyat qildi.

Nomozshomgul esa:

— To‘g‘ri aytasan, mana shu chinnigul bo‘lmaganida, egamiz



bizga ko‘proq e’tibor bergan bo‘lardi, — dedi.

Shunda tovusgul:

— Menda bir fikr bor, — dedi.

Boshqa gullar uning gapiga quloq tutishdi. Tovusgul davom etdi:

— Agar chinnigulni oramizdan chiqarib yuborsak, egamiz bor mehrini bizga beradi. Kelinglar, uni haydab yuboramiz.

Gullar bir yoqadan bosh chiqarib, chinnigulni gulzordan haydab yuborishdi.

Zilola maktabdan kelib, har doimgidek gulzor tomon yo‘l oldi. Ammo ne ko‘z bilan ko‘rsinki, o‘zi juda yaxshi ko‘radigan, eng chiroyli chinniguli gullar orasida yo‘q edi. U o‘zini tutolmay, chuqur xo‘rsinib yig‘lab yubordi. Shunchalik yig‘ladiki, uning ko‘z yoshlari ariq bo‘yidagi gulzor tuprog‘iga singib ketayotgandek edi.

Bu holatga guvoh bo‘lgan gullar o‘z qilmishlaridan pushaymon bo‘lishdi. Agar chinnigulni qaytarib olib kelishmasa, egalariga ozor yetkazishlarini anglab yetishdi. Tovusgul darhol chinnigulning oldiga borib, undan kechirim so‘rash va uni yana gulzorga qaytarish kerakligini aytdi. Gultojixo‘roz va nomozshomgul ham unga qo‘shilishdi.

Ular chinniguldan uzr so‘rashdi. Shunda chinnigul dedi:

— Do‘stlarim, axir hammamiz ham gulmiz. Har birimizning go‘zalligimiz o‘ziga xos. Dunyoda barcha gullar bir-biridan chiroyli.

Tong otdi. Zilola uyqudan uyg‘onib, gulzor tomonga qaradi. Birdan uning uyqusi qochib, qalbi quvonchga to‘ldi. Chunki o‘zi sevgan chiroyli chinniguli yana boshqa gullar qatori gulzorda paydo bo‘lgan edi.

Zarina ABDUMUTALIPOVA

MUHIM TASHABBUS

SEL TOSHQINLARI VA KO‘CHKI HODISALARIDAN MUHOFAZA OYLIGI

Yurtimizda har yili bahor fasli kirib kelishi bilan tabiiy ofatlar xavfi ortadi. Ayniqsa, sel toshqinlari va ko‘chki hodisalari tog‘li hamda tog‘ oldi hududlarida yashovchi aholi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Shu sababli mamlakatimizda mart oyi “Sel toshqinlari va ko‘chki hodisalaridan muhofaza oyligi” deb e’lon qilinadi. Ushbu oylikning asosiy maqsadi — aholini tabiiy ofatlardan ogoh etish, xavfsizlik choralarini kuchaytirish hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olishdan iborat.

Mazkur oylik davomida tegishli tashkilotlar tomonidan aholi yashash hududlari, daryo va soy bo‘ylari, tog‘li hududlar hamda xavfli deb topilgan joylar nazoratdan o‘tkaziladi. Sel kelishi mumkin bo‘lgan hududlarda ariqlar va kollektorlar tozalanadi, suv yo‘llari tartibga keltiriladi hamda himoya inshootlari mustahkamlanadi. Shuningdek, ko‘chki xavfi mavjud bo‘lgan joylarda monitoring ishlari olib borilib, zarur profilaktik tadbirlar amalga oshiriladi.

Oylik doirasida Bekobod tumanida ham aholi o‘rtasida targ‘ibot va tushuntirish ishlari keng yo‘lga qo‘yildi. Mutaxassislar tomonidan fuqarolarga sel toshqinlari va ko‘chki sodir bo‘lganda qanday harakat qilish kerakligi, xavfsizlik qoidalariga qanday amal qilish lozimligi haqida ma’lumotlar berildi. Ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda uchrashuvlar, seminarlar hamda targ‘ibot tadbirlari tashkil etilib, aholining favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligi oshirildi.

Shuni unutmaslik kerakki, tabiiy ofatlarning oldini olishda har bir fuqaroning hushyorligi muhim ahamiyatga ega. Agar kuchli yomg‘ir yog‘ib, tog‘lardan suv oqimi kuchaygan bo‘lsa yoki yer qatlamida yoriqlar paydo bo‘lsa, darhol tegishli xizmatlarga xabar berish zarur. Sel kelishi ehtimoli mavjud bo‘lgan hududlarda yashovchilar xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya etishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, “Sel toshqinlari va ko‘chki hodisalaridan muhofaza oyligi” aholining xavfsizligini ta’minlash, tabiiy ofatlar oqibatlarini kamaytirish hamda fuqarolarning ogohligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar orqali yurtimizda favqulodda vaziyatlarning oldi olinib, inson hayoti va mol-mulki himoya qilinadi. Har birimiz tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lib, xavfsizlik qoidalariga amal qilsak, ko‘plab noxush holatlarning oldini olishimiz mumkin.

Abdulaziz ABDUGAPPAROV,
Bekobod tuman FVB kichik inspektori, oddiy askar,
Bahriddin ACHILOV,
“UKZ” OFVB inspektori, 1-serjant

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash'al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497